



UDK: 322:321:28(595+594+592.3)

Anvar MUSTAFOYEV,

Mustaqil tadqiqotchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti. Din ishlari bo'yicha qo'mita xodimi, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: anvaralishermustaf1997@mail.ru ORCID: 0009-0003-8546-6204

S.f.d., dotsent B.Soipov taqrizi asosida

MODELS OF STATE-RELIGION RELATIONS IN SOUTHEAST ASIA: A COMPARATIVE STUDY OF MALAYSIA, INDONESIA, AND SINGAPORE

Annotation

This article provides a comparative analysis of institutional models of state-religion relations in Southeast Asia, using the cases of Malaysia, Indonesia, and Singapore. The main objective of the study is to identify the legal, political, and social mechanisms of religious governance in these countries and to assess their impact on societal stability. Methodologically, the research employs an institutional approach, comparative analysis, and systems analysis. The findings indicate that Malaysia has developed a state-supported Islamic model; Indonesia has established a pluralistic and balanced model based on the "Pancasila" principle; whereas Singapore has adopted a strict secular and pragmatic governance model. Each model is shaped by historical factors, ethnic composition, and political strategies. The study concludes that maintaining a balance between state and religion is a necessary condition for social stability, religious tolerance, and political legitimacy.

Keywords: state-religion relations, secularism, religious pluralism, institutional model, Malaysia, Indonesia, Singapore, religious tolerance, social stability.

МОДЕЛИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ГОСУДАРСТВА И РЕЛИГИИ В ЮГО-ВОСТОЧНОЙ АЗИИ (НА ПРИМЕРЕ МАЛАЙЗИИ, ИНДОНЕЗИИ И СИНГАПУРА)

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ институциональных моделей взаимоотношений государства и религии в Юго-Восточной Азии на примере Малайзия, Индонезия и Сингапур. Основной целью исследования является выявление правовых, политических и социальных механизмов религиозного управления в указанных странах, а также оценка их влияния на общественную стабильность. В методологическом плане использованы институциональный подход, сравнительный анализ и системный анализ. Результаты показывают, что в Малайзии сформирована поддерживаемая государством исламская модель, в Индонезии плюралистическая и сбалансированная модель, основанная на принципе «Панчасила», тогда как в Сингапуре строгая секулярная и прагматическая модель управления. Каждая из моделей обусловлена историческими факторами, этническим составом и политическими стратегиями. Выводы исследования подтверждают, что обеспечение баланса между государством и религией является необходимым условием социальной стабильности, религиозной толерантности и политической легитимности.

Ключевые слова: государственно-религиозные отношения, секуляризм, религиозный плюрализм, институциональная модель, Малайзия, Индонезия, Сингапур, религиозная толерантность, социальная стабильность.

JANUBIY-SHARQIY OSIYODA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI MODELLARI (MALAYZIYA, INDONEZIYA VA SINGAPUR MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Janubi-Sharqiy Osiyoda davlat va din munosabatlarining institutsional modellari Malayziya, Indoneziya va Singapur misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur davlatlarda diniy boshqaruvning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy mexanizmlarini aniqlash hamda ularning jamiyat barqarorligiga ta'sirini baholashdan iborat. Metodologik jihatdan institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, Malayziyada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan islomiy model, Indoneziyada pluralistik va "Pancasila" tamoyiliga asoslangan muvozanatli model, Singapurda esa qat'iy sekulyar va pragmatik boshqaruv modeli shakllangan. Har bir model tarixiy omillar, etnik tarkib va siyosiy strategiyalar bilan bog'liq. Tadqiqot xulosalari davlat va din o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash ijtimoiy barqarorlik, diniy bag'rikenglik va siyosiy legitimlik uchun kerak ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: davlat-din munosabatlari, sekulyarizm, diniy pluralizm, institutsional model, Malayziya, Indoneziya, Singapur, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy barqarorlik.

Kirish. Zamonaviy global sharoitda davlat va din munosabatlari masalasi siyosiy barqarorlik, ijtimoiy uyg'unlik va milliy xavfsizlik bilan bevosita bog'liq murakkab tadqiqot obyektiga aylangan. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarda ushbu munosabatlarni samarali tartibga solish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Janubi-Sharqiy Osiyo hududidagi Malayziya, Indoneziya va Singapur tajribasi turli institutsional modellarning shakllanishi va ularning samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur

tadqiqotning maqsadi ushbu davlatlarda davlat-din munosabatlari modellarini qiyosiy o'rganish hamda ularning ijtimoiy barqarorlikka ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida huquqiy asoslarni tahlil qilish, institutsional mexanizmlarni baholash va mavjud muammolarni aniqlash belgilangan. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati turli modellarni tizimli qiyoslash orqali umumlashtirilgan xulosalar ishlab chiqish bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga doir rus va ingliz tillaridagi ilmiy tadqiqot ishlari atroflicha o'rganildi va maqola yozish davomida barchasidan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda davlat va din munosabatlarini tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Asosiy usul sifatida qiyosiy tahlil tanlanib, Malayziya, Indoneziya va Singapur modellari o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi. Institutsional yondashuv orqali konstitutsiyaviy normalar, huquqiy mexanizmlar va boshqaruv tizimlari o'rganildi. Tizimli tahlil usuli davlat, din va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kompleks ko'rib chiqishga imkon berdi. Tarixiy-qiyosiy metod yordamida modellar evolyutsiyasi tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyoning siyosiy va ijtimoiy jihatdan nisbatan barqaror hamda institutsional jihatdan rivojlangan davlatlaridan biri sifatida davlat va din munosabatlari modelining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning modeli konstitutsiyaviy sekulyarizm tamoyillari bilan Islomning rasmiy maqomi o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Malayziya misolida davlat diniy sohani to'liq ajratib qo'ymasdan, uni tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi rolni bajaradi. Shu bois mazkur tizim klassik sekulyar yoki teokratik modellardan farqli ravishda gibrid xarakter kasb etadi va ko'p millatli hamda ko'p konfessiyali jamiyat ehtiyojlariga moslashgan.

Malayziya Konstitutsiyasining 3-moddasiga muvofiq, Islom "Federatsiya dini" sifatida e'tirof etiladi, biroq boshqa dinlar mamlakat hududida tinchlik va hamjihatlik sharoitida amal qilishi kafolatlanadi. Ushbu norma 1957-yildagi mustaqillik davrida Britaniya mustamlakachilik merosi va mahalliy sultonlar manfaatlarini o'rtasidagi muvozanat natijasida shakllangan. Birinchi bosh vazir Tunku Abdul Rahman ushbu qoidani davlatning diniy xususiyatini belgilovchi emas, balki asosan ramziy xarakterga ega deb talqin qilgan va mamlakatni "Islom davlati" sifatida tavsiflashdan tiyilgan. 2001-yilda bosh vazir Mahathir Muhammad tomonidan Malayziyaning "negara Islam" sifatida ta'riflanishi siyosiy va akademik doiralarda muhokamalarga sabab bo'lgan, biroq bu bayonot konstitutsiyaviy darajada tan olinmagan. Konstitutsiyaning 11-moddasi din erkinligini kafolatlaydi, ammo musulmon aholi orasida missionerlik faoliyatini cheklovchi normalarni ham o'z ichiga oladi. 160-modda esa "malay" etnik identifikatsiyasini Islom dini bilan bog'laydi, ya'ni malay bo'lish uchun musulmon bo'lish zarur [1].

Malayziya modelining asosiy institutsional xususiyati ikki yoqlama huquqiy tizimning mavjudligidir. Fuqarolik sudlari sekulyar huquq asosida jinoyat va tijorat masalalarini ko'rib chiqadi, Shariat sudlari esa faqat musulmonlar uchun shaxsiy va oilaviy masalalar doirasida faoliyat yuritadi. 1988-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan 121(A)-modda fuqarolik sudlarining Shariat sudlari yurisdiksiyasiga aralashuvini cheklagan. Natijada musulmon aholining shaxsiy hayoti Islom huquqi asosida tartibga solinadi, boshqa diniy guruhlar uchun esa fuqarolik huquqi amal qiladi [4]. Shtatlar darajasida Islom qonunchiligi mustaqil ishlab chiqiladi: xususan, Kelantan va Terengganuda hududiga oid normalar qabul qilingan bo'lsa-da, ular federal miqyosda to'liq implementatsiya qilinmagan.

Malayziyada davlat siyosati "Islom qadriyatlarini infuziya qilish" tamoyiliga asoslanadi, ya'ni diniy qadriyatlar davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotga bosqichma-bosqich integratsiya qilinadi. Hukumat Islom institutlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi, masjidlar qurilishini rag'batlantiradi hamda Ramazon va Qurbon hayitlarini milliy bayram sifatida e'tirof etadi. Diniy pluralizm doirasida buddist, xristian va hindu jamoalarining ibodat infratuzilmasi ham mavjud bo'lib, ularga nisbatan cheklangan darajada qo'llab-quvvatlash mexanizmlari amal qiladi [2]. Siyosiy-institutsional jihatdan Yang di-Pertuan Agong federal hududlarda, shtat sultonlari esa o'z hududlarida Islom boshlig'i sifatida faoliyat yuritadi, bu esa monarxiya, federalizm va din o'rtasidagi o'zaro integratsiyani aks ettiradi.

Biroq ushbu model amaliyotida bir qator tizimli muammolar kuzatiladi. Birinchidan, apostaziya masalasi musulmonlar uchun deyarli huquqiy imkoniyatlardan mahrum

etilgan. Ikkinchidan, voyaga yetmaganlarni bir tomonlama Islomga o'tkazish bilan bog'liq nizolar mavjud. Uchinchidan, etnik-diniy tengsizlik elementlari ijtimoiy taranglikni kuchaytiradi: malaylar Islom bilan institutsional bog'liqligi sababli bumiputera imtiyozlaridan foydalanadi, bu esa xitoy va hind diasporalari orasida norozilik keltirib chiqaradi. Siyosiy maydonda Pan-Malaysian Islamic Party (PAS) tomonidan Kelantan va Terengganu hududlarida qat'iyroq shariat normalarini joriy etish talablari ilgari surilib, "Islom davlati" va "sekulyar davlat" o'rtasidagi normativ bahslarni keskinlashtiradi.

Malayziya modeli ko'plab indikatorlar bo'yicha nisbatan samarali hisoblanadi. U barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilgan. "Mo'tadillik" siyosati orqali diniy ekstremizmning oldi olinib, Islom qadriyatlarini modernizatsiya va globallashuv jarayonlari bilan uyg'unlashtirilgan. Xalqaro diskursda Malayziya ko'pincha "mo'tadil Islom" modeli sifatida talqin qilinadi. Istiqbolda konstitutsiyaviy islohotlar, sud amaliyotining izchilligini ta'minlash hamda etnik tenglikni mustahkamlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda; aks holda mavjud tizim ichki ziddiyatlarning kuchayishi xavfi bilan yuzlashishi mumkin.

Indoneziya dunyodagi eng katta musulmon aholiga ega davlat bo'lib, aholining qariyb 87 foizini musulmonlar tashkil etadi. Shunga qaramay, u islomiy davlat maqomiga ega emas. Mamlakatda davlat va din munosabatlari o'ziga xos institutsional model asosida shakllangan bo'lib, u Pancasila tamoyiliga tayanadi. Ushbu konsepsiya 1945-yilda mustaqillik jarayonida Sukarno tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, davlatni na to'liq teokratik, na qat'iy sekulyar shaklda tashkil etadi [3]. U "Yagona Xudoga ishonish" prinsipini asos qilib olib, dinlararo hamjihatlik va milliy birlikni ta'minlashga qaratilgan. Indoneziya Konstitutsiyasining 29-moddasiga muvofiq, davlat "Yagona Xudoga ishonish"ga asoslanadi hamda har bir fuqaroning diniy e'tiqod erkinligi kafolatlanadi. Bu norma 17 mingdan ortiq orollardan iborat va etnik hamda diniy jihatdan rang-barang jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda institutsional asos vazifasini bajaradi [4].

Huquqiy nuqtai nazardan Indoneziyada davlat va din munosabatlari aniq normativ asosga ega. 1945-yilgi Konstitutsiyaning 29-moddasiga muvofiq, davlat "Yagona Xudoga ishonish" prinsipiga tayanadi va shu bilan birga har bir fuqaroning o'z diniy e'tiqodiga ko'ra ibodat qilish erkinligini kafolatlaydi. Amaliy jihatdan davlat oltita rasmiy dinni tan oladi: islom, protestantizm, katolitsizm, induizm, buddizm va konfutsianizm. Fuqarolar shaxsiy identifikatsiya hujjatlarida ushbu dinlardan birini ko'rsatishi talab etiladi, bu esa ateizm va boshqa noan'anaviy e'tiqodlarning rasmiy maqomdan chetda qolishiga olib keladi [5]. 1965-yildagi prezident farmoni (keyinchalik jinoyat qonunchiligiga integratsiya qilingan) diniy haqoratni jinoyat javobgarlikka tortadi; 2026-yilda kuchga kirgan yangi Jinoyat kodeksi ushbu normalarni yanada qat'iyashtirdi. Davlat diniy tashkilotlarni ro'yxatdan o'tkazish va ibodat inshootlarini qurishni tartibga soladi. Pancasila tamoyili barcha fuqarolik jamiyati institutlari uchun majburiy ideologik asos sifatida amal qiladi [6]. Yirik diniy tashkilotlar, jumladan Nahdlatul Ulama va Muhammadiyah ushbu modelni qo'llab-quvvatlab, zamonaviy Islomni targ'ib etadi hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Amaliyot darajasida Indoneziya modeli "dinlararo hamjihatlik" (kerukunan beragama) konsepsiyasiga tayanadi. Davlat turli diniy bayramlarni rasmiy ravishda e'tirof etadi, ta'lim tizimida esa Pancasila va diniy ta'lim majburiy komponent sifatida joriy etilgan. Maktablarda Pancasila asoslari alohida fan sifatida o'qitilib, yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Tizimning zaif tomonlari ham mavjud: Ahmadiyya jamoalari, shia tarafdorlari hamda mahalliy an'anaviy e'tiqod vakillari ayrim holatlarda diskriminatsiyaga duch keladi. Ba'zi hududlarda mahalliy hokimiyatlarning diniy siyosati (hijob majburiyati yoki ibodat inshootlari qurilishiga cheklovlar) markaziy prinsiplar bilan ziddiyatga kirishi mumkin. Radikal guruhlar, jumladan Islamic Defenders Front faoliyati vaqti-vaqti bilan ijtimoiy keskinlikni oshirsa-da, hukumat Pancasila tamoyillarini kuchaytirish orqali ekstremizmga qarshi kurashni

davom ettirmoqda. Prabovo Subianto davrida ham ushbu ideologiya milliy birlikning asosiy ustuni sifatida saqlanib qolmoqda.

Indoneziya modeli shuni ko'rsatadiki, musulmonlar ko'pchilikni tashkil etadigan jamiyatda ham diniy pluralizmni saqlagan holda milliy birlikni ta'minlash mumkin. G'arbiy sekulyarizmning qat'iy ajratish prinsipidan farqli ravishda Indoneziya yondashuvi diniy ijtimoiy hayotning legitim va ajralmas elementi sifatida tan oladi, biroq uni siyosiy hukmronlik darajasiga ko'tarmaydi. Bu esa davlat va din o'rtasida muvozanatli hamkorlik modelini shakllantiradi. Mazkur tizim Pancasila orqali institutsional mustahkamlik kasb etib, ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Indoneziya modeli Markaziy Osiyo va boshqa musulmon davlatlari uchun muqobil rivojlanish paradigmasi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. U din va siyosat o'rtasidagi qarama-qarshilikni emas, balki ularning o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, modelning cheklovlari ham mavjud. Yangi Jinoyat kodeksining ayrim normalari hamda mahalliy darajadagi tartibga solish amaliyotlari diniy erkinlik doirasini toraytirishi mumkin.

Singapur zamonaviy davlat va din munosabatlari modellari orasida o'ziga xos o'rin egallaydi. 1965-yilda mustaqillikka erishgan ushbu shahar-davlat aholisi etnik va diniy jihatdan nihoyatda rang-barang bo'lib, xitoylar (taxminan 75%), malaylar (15%), hindlar (7%) va boshqa guruhlardan iborat. Diniy tarkib ham pluralistik xarakterga ega: buddizm, islom, xristianlik, hinduizm va boshqa e'tiqodlar birgalikda mavjud. Shu murakkab ijtimoiy tuzilma sharoitida Singapur "moslashuvchan sekulyarizm" modelini shakllantirgan [7]. Ushbu model davlatni diniy institutlardan institutsional jihatdan ajratadi, biroq diniy jamiyat hayotidan butunlay siqib chiqarmaydi. Din ijtimoiy barqarorlik va konfessiyalararo uyg'unlikni ta'minlovchi omil sifatida tan olinadi. 1964-yildagi irqiy to'qnashuvlar va Malayziyadan ajralish tajribasi aynan shu yondashuvning shakllanishida tarixiy omil bo'lgan [8].

Singapur ta'lim tizimida "Milliy ta'lim" dasturlari orqali turli konfessiyalar o'rtasidagi hurmat va bag'rikenglik qadriyatlarini tizimli ravishda singdiriladi. Har yili o'tkaziladigan "Diniy bag'rikenglik kuni" esa ijtimoiy integratsiyani mustahkamlovchi normativ-amaliy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Siyosiy diskursda ham "xilma-xillik bu barqarorlik manbai" degan g'oya muntazam ilgari suriladi. Davlatning pragmatik yondashuvi diniy

masalalarda ham namoyon bo'ladi: ilgari taqiqlangan hijob kiyish amaliyoti keyinchalik ayrim davlat xizmatlarida qisman ruxsat etilgan. Bu qat'iy institutsional qoidalar bilan moslashuvchan siyosiy qarorlar uyg'unlashganini ko'rsatadi [9]. Li Kuan Yu ta'kidlaganidek, din ijtimoiy-axloqiy kapital manbai sifatida qadrlanadi, biroq siyosiy qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatmasligi kerak. Natijada Singapurda diniy ekstremizm darajasi past bo'lib, tashqi radikalizm tahdidlariga qarshi samarali profilaktika tizimi shakllangan. Shu sababli mamlakat mintaqada diniy bag'rikenglikning nisbatan muvaffaqiyatli modellari qatoriga kiradi. Ushbu model mutlaq mukammal emas. Ayrim tahlillarga ko'ra, qat'iy sekulyar tamoyillar ba'zi hollarda diniy erkinlikning amaliy doirasini toraytirishi mumkin, xususan diniy guruhlarining siyosiy faolligi cheklanadi. CMIO model doirasidagi tasniflash jamiyatning real ijtimoiy xilma-xilligini to'liq aks ettirmasligi haqidagi tanqidlar mavjud.

Xulosa va tahlillar. Xulosa qilib aytganda, Malayziya, Indoneziya va Singapur davlatlarida shakllangan davlat-din munosabatlari modellari turli tarixiy, etnik va siyosiy omillar ta'sirida rivojlangan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi umumiy jihat bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan muvozanatli yondashuv hisoblanadi. Malayziya gibril model orqali Islomning rasmiy maqomi va sekulyar institutlar o'rtasida muvozanat yaratgan, biroq etnik-diniy tengsizlik va huquqiy dualizm muammolari saqlanib qolmoqda. Indoneziya Pancasila asosida diniy pluralizmni institutsional darajada mustahkamlab, eng yirik musulmon demokratiyaga aylangan, ammo ayrim huquqiy cheklovlar diniy erkinlikni toraytiradi. Singapur esa "moslashuvchan sekulyarizm" orqali qat'iy nazorat va pragmatik siyosatni uyg'unlashtirib, yuqori darajadagi diniy uyg'unlikka erishgan, lekin bu model ba'zan fuqarolik erkinliklari hisobiga ishlaydi. Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Davlat va din o'rtasidagi huquqiy chegaralarni aniq va izchil belgilash zarur;

Diniy erkinlik va ijtimoiy xavfsizlik o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi institutsional mexanizmlar takomillashtirilishi lozim; Ta'lim tizimi orqali bag'rikenglik va pluralizm qadriyatlarini mustahkamlash ustuvor bo'lishi kerak;

Etnik va diniy tenglikni ta'minlashga qaratilgan siyosat kuchaytirilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Kelesoglu, A. N., Hooi, K. Y., & SIDHU, J. S. (2024). Ethno-Religious Identity and Mobilization: Examining Framing Strategies of Ikatan Muslimin Malaysia in Malaysia. *Contemporary Southeast Asia*, 46(3), 435–475.
2. Арутюнян Рубен Артурович (2023). Государственный строй малаккского султаната. Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки, 7 (2 (26)), 224-230.
3. Samsidar, S., Syamsuduha, S., Pababbari, M., & Shafiq, K. (2024). The Islamization of the Malay Sultanate: Tracing the historical roots of Islamic influence in Malaysia. *Jurnal Al-Dustur*, 7(2), 136–151.
4. Hussain, J. (2011). More Than One Law for All: Legal Pluralism in Southeast Asia. *Democracy and Security*, 7(4), 374–389.
5. Choong, C. E. (2014). The Christian Response to State-led Islamization in Malaysia. In B. Platzdasch & J. Saravanamuttu (Eds.), *Religious Diversity in Muslim-majority States in Southeast Asia: Areas of Toleration and Conflict* (pp. 290–320). Chapter, ISEAS–Yusof Ishak Institute.
6. Nurdianzah, E., Azizah, N., Rahmawati, R., Munib, A., Sulistyowati, O. H., & Albary, H. (2024). Pancasila as state ideology and pillar of religious harmony in Indonesian society. *Islamic Review: Jurnal Riset dan Kajian Keislaman*, 13(2), 129–142.
7. Кирюшина Мария Алексеевна (2018). Идеи Панча Шила в современной внешней политике Индонезии. Гуманитарный акцент, (4), 60-65.
8. Другов Алексей Юрьевич (2016). Индонезия: судьбы национальной идеологии. Юго-Восточная Азия: актуальные проблемы развития, (32), 50-70.
9. Santika, I. G. N., Kartika, I. M. M., Sujana, I. G., & Dwindayani, N. M. A. (2023). The dynamic history of the journey of Pancasila as the foundation of the Indonesian state. *Journal of Sustainable Development Science*, 5(1), 25–32.
10. Sodikin, S. (2021). Constitutional guarantees regional regulations of Sharia in Indonesia. *Kanun Jurnal Ilmu Hukum*, 23(1), 81–100.